E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

KO‘P MA’NOLI SO‘ZLAR VA OMONIMLARNI O‘ZARO FARQLASH TAMOYILLARI

Masharipova Adolat Odilbek Qizi
Uganch davlat pedagogika instituti “Umumiy filologiya” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
adolatmasharipova1404@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarni farqlashdagi qoidalarga to‘xtalib o‘tilga. Ko‘p ma’noli so‘zlarning turkumlari, ya’ni metonimiya, metafora, sinekdoxa, vazifadoshlik va kinoya usullari bir qancha misollar yordamida yoritib berilgan.
Kalit so’zlar: o’z ma’no, ko’chma ma’no, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, omonim.
ABSTRACT: The rules for distinguishing homonymous and polysemous words are explained in this article. The categories of polysemous words, like metonymy, metaphor, irony and simile are clarified with the help of several examples.
Key words: main meaning, context meaning, metaphor, metonymy, irony, homonymy.

KIRISH

Har til o‘zining leksik tarkibiga egadir, shu qatorda o‘zbek tili ham. Eng avvalo o‘zbek tilining leksik tarkibi haqida so‘z yuritishdan oldin, leksika atamasining ma’nosini va uning til tarkibida tutgan o‘rnini izohlab o‘tish lozim. Leksika atamasi yunon tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, “lexis” – “so‘zga oid, lug‘aviy” degan ma’nolarni bildiradi [3; 42]. Leksika har bir tildagi so‘zlar, iboralar, so‘z birikmalari va tilning lug‘aviy boyligidan iborat hisoblanadi. Leksika hamisha ma’lum qonun-qoidalarga bo‘ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi zamon rivojlanishi bilan hamisha o‘zgarib turadi. Bu jarayon til tarkibidagi ba’zi so‘zlarning eskirib, iste’moldan chiqishi, ularning o‘rnini yangi, zamonaviy va ommabop so‘zlarning egallashi kabi holatlarda yaqqol kuzatiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Globallashuv jarayonida va jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar natijasida leksika kundan kunga boyib boradi. Til leksikasi boyishi quyidagi ikki turga ajratiladi:

1. Ichki imkoniyatlar asosida.
2. Boshqa tillardan so‘zlar o‘zlashtirish hisobiga.

Ichki imkoniyat asosida boyishida ko‘p ma’noli so‘zlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Bir ma’noli so‘zlardan farqli ravisgda ko‘p ma’noli so‘zlar, o‘z nomiga yarasha nutq jarayoniga bog‘liq tarzda ko‘p ma’nolarga ega bo‘ladi. Ya’ni bu so‘zlar nutqdan tashqarida boshqa ma’no, nutq tarkibida boshqa ma’no aks ettiradi. Masalan, *ko‘z* so‘zi nutqdan tashqarida inson tana a’zosini bildirsa, *ishning ko‘zi* birikmasida ishning tezda siljiydigan yo‘li ma’nosida kelgan. Ko‘p ma’noli so‘zlarda ikki xil ma’no farqlanadi [3; 45]:

- Bosh (asl) ma’no;
- Yasama (ko‘chma) ma’no.

So‘zning ko‘chma ma’nosi kontekstdan kelib chiqqan holda farqlanadi. So‘zlarning yasama ma’nolari ma’no ko‘chishi turlari deb ataladi va ular beshtaga bo‘linadi: 1) metanimiya; 2) metafora; 3) sinekdoxa; 4) kinoya; 5) vazifadoshlik yo‘li bilan ma’no ko‘chish turlari.

Metafora grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, ‘ko‘chirma’ degan ma’noni anglatadi [5; 68]. Bunda narsa va hodisalarning o‘xshashlik jihati asosida birining nomi orqali ikkinchisini nomlanadi. Masalan,

- *Odamning og‘zi* (asl ma’no)

Tandirning og‘zi (yasama ma’no)

- *Daraxt o‘sdi* (asl ma’no)

Bilimi o‘sdi (yasama ma’no)

Metaforik iboralarni quyidagilar asosida uchratishimiz mumkin:

1) Tana a’zolari: *bet, yuz, ko‘z, quloq, burun, lab, tish, og‘iz, oyoq* va hokazo;
2) Kiyim va kiyim qismlari misolida: *yoqa, etak* kabi;

3) Parrandalar, hayvonlar va hasharotlarning biron a'zolari nomi: *dum, qanot, tumshuq;*
4) O'simliklar va ularning qismlari nomi: *ildiz, tomir;*
5) Qurollarning nomlari: *pichoq, nayza;*
6) Ba'zi sifatlar va ish-harakat nomlari: *past, baland, chaqmoq, olmoq* kabi.

Metonimiya so'zi ham grekchadan oolinga bo'lib, 'nomini almashtirish', 'qayta nomlash' ma'nolarini beradi [5; 69] . Metonimiya jarayonida narsa, belgi va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ma'no ko'chadi. Metonimiya hodisasidagi aloqadorlik quyidagi holatlarda kuzatilishi mumkin:

1) Narsani nomlashda uni yaratishda ishlatilgan metal nomidan foydalanish: *Oltinlarimni sotib, yangi mashina sotib oldim.*
2) Aniq otlarni mavhum otlar bilan almashtirish: *Kelaqol, go'zalim!* (*Kelaqol, go'zal qizim!* o'rnida)
3) Mazmun tarkib bilan almashtiriladi, masalan muayyan ichimlik nomi o'rniga: *Men boshqa stakan ichaman.*
4) Buyumning nomi uning biror sifati bilan almashtiriladi: *Qizildagi ayol mening xolam.* (*Qizil ko'ylakdagi mening xolam.* o'rnida)
5) Asar nomi o'rniga muallifni qo'llash: *Paulo Koeloni o'qib tugatdingmi?*(*Paulo Koeloni asarini o'qib tugatdingmi?* o'rnida)
6) Shaxs va u turgan joy nomini almashtirish: *Bog'dod tinch.* (*Bog'dod aholisi tinch* o'rniga)

Sinekdoxa ham grekcha so'zdan olingan bo'lib, 'nazarda tutish degan ma'noni anglatadi [5; 70]. Sinekdoxa deganda gapda qism orqali butunni yoki, butun orqali qismni ifodalash tushuniladi. Masalan, *Ular tirnoqqa zor edi* ushbu gapda tirnoq orqali *farzand* ma'nosi ifodalangan.

Vazifadoshlik – narsalarning bajaradigan vazifasining o'xshashligi nisbatida ma'no ko'chishining turi. Bu asosan metaforaga o'xshab ketadi [4; 86]. Masalan *siyoh* so'zi tojikchada *'qora'* degan ma'noni anglatadi, yozuv quroli sifatida ishlatadigan ruchkalarimiz ichidagi suyuqlik qora rangda bo'lganligi sabali u ham *siyoh* deb ataladi. Yoki *qushning qanoti* va *samalyotning qanoti* birikmalarini olsak, bunda ikkala birikmadagi *qanot* so'zlari uchish uchun moslashgan qismni bildiradi.

Kinoya – so'zlarning o'z ma'nosida emas, aksincha teskari ma'noda qo'llanilishi [6; 90]. Bunda so'zlar yozma nutqda qo'shtirnoq belgisi bilan yoziladi. Masalan, *"Sizlar" yetmay turgandingizlar o'zi.*

Ko'p ma'noli so'zlarning omonimlardan asosiy farqi shundan iboratki, omonimlar bir xil shaklda yoziladigan ikki xil so'zlardir, ko'p ma'noli so'zlar esa kontekstdan anglangan holda so'zlarning bir nechta ma'noni anglatadi [2; 54]. Quyidagi misollar orqali buni yaqqol anglab yetishimiz mumkin:

- *Suv tiniq oqmoqda*. (*oqmoq* fe'li, omonim)
- *Oq shlyapa senga juda yarashadi.* (rang, omonim)
- *Uning ko'ngli oq, yomon ishlar qilmaydi.* (ma'no ko'chishi, vazifadoshlik)

Omonimlar bu – aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi. Omonimlarni ikkinchi nomi shakldoshlardir. Masalan: *soz* – cholg'u asbobi, *soz* – puxta ma'qul, *soz* – inoq, o'zaro yaqin. Shakldosh so'zlar bir qarashda ko'p ma'noli so'zlarga o'xshab keta- di. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zning ko'chma va o'z ma'nolarida qo'llashdan hosil bo'ladi. Shakldosh so'zlar esa shakli o'xshash ikkiva undan ortiq so'zlardir [2; 54]. Omonimlarning quyidagi turlari mavjud.

1) Leksik (lug'aviy) omonimlar so'z o'rtasidagi omonimlardir. Misol: *Soch*-a'zo, *soch*-sochmoq(harakat.)

2) Frazeologik (ibora) omonimlari ya'ni ko'chma ma'noli , ta'sirchanlikka ega bo'lgan birikmalar o'rtasidagi omonimlar. Misol: *Boshga ko'tarmoq*-e'zozlamoq, *boshga ko'tarmoq*-janjal qilmoq.

3) Grammatik omonimlar ikki xil bo'ladi:

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

a) Morfologik omonimlar qo‘shimchalar o‘rtasidagi omonimlardir. Masalan: *to‘kin dasturxon* (sifat yasovchi), *ekin (*ot yasovchi) qo‘shimcha.

b) Sintaktik omonimlar so‘z birikmalari va gaplardagi omonimlardir. So‘z birik- malaridagi omonimlik:

- *Yolg‘ondan hayron bo‘lmoq* (yolg‘on gapdan hayron bo‘lmoq),
- *Yolg‘ondan hayron bo‘lmoq* (yolg‘ondakamiga hayron bo‘lmoq).

Gaplardagi omonimlik:

- *Karimjon akam keldimi?*
- *Karimjon, akam keldimi?*

(birinchi gapda *Karimjon* so‘zi ega vazifasida kelyapti, ikkinchi gapda *Karimjon* so‘zi undalma bo‘lib kelyapti).

Ko‘p ma’noli va shakldosh so‘zlarni farqlash bilan bog‘liq muammo bo‘ladi. Avvalo omonim (shakldosh) so‘zlar bir xil shaklda bo‘lishiga ko‘ra ko‘p ma’noli so‘zlarga o‘xshaydi. Lekin ular faqat bir xil shaklga teng so‘zlardir xolos. Masalan: *yoz* (fasl), *yoz* (qalamda yozmoq), *yoz* (dastur-xonni yoz.)

Omonim va ko‘p ma’noli so‘zlar orasidagi farq shundaki, ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nolari orasida aloqadorlik mavjud bo‘ladi, omonim so‘zlarning orasida esa aloqadorlik mavjud bo‘lmaydi. Ko‘p ma’noli so‘zlar qancha ko‘p ma’noga ega bo‘lmasin, bu ma’nolar o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Omonimlar esa boshqa boshqa so‘z bo‘lgani uchun ularning ma’nolari o‘rtasida bog‘lanish bo‘lmaydi. Shakldoshlarda umuman bog‘liqlik bo‘lmaydi [1; 3]. Masalan: *o‘t*-maysa (ot so‘z turku-mi), *o‘t*-olov (ot so‘z turkumi), *o‘t*-jigardan ajralib chiquvchi sarg‘ish, yashil achchiq suyuqlik (ot so‘z turkumi), *o‘t*-o‘tmoq 2-shaxs fe’lining buyruq mayli.

Ko‘p ma’noli so‘zlar o‘rtasida esa bog‘liqlik bo‘ladi. Masalan: ko‘z so‘zining ko‘p ma’nolarini ko‘rib chiqamiz.

- *Ko‘z-insonning ko‘zi* (tirik mavjudotning ko‘rish a’zosi)
- *Ko‘z-derazaning ko‘zi* (ko‘chma ma’no (metafora) *Ko‘z-yog‘ochning ko‘zi* (ko‘chma ma’no (metafora)*Ko‘z-uzukning ko‘zi* ko‘chma ma’no (metafora)
- *Ko‘z-osmonga tikilgan ko‘zlar* (sinekdoxa)

Omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarni farqlashda asosiy qoida ular orasidagi bog‘-liqlikka qarab aniqlanadi.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz kerakki, ma’no ko‘chish yo‘llari ilmiy jihatdan jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan hamin qadar o‘rganilgan. Mana shu o‘rganilgan nazariy ma’lumotlar asosida o‘zbek tili o‘qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqib, ma’no ko‘chishini ta’lim jarayonida o‘quvchilarga tushuntirish, qo‘llashni faollashtirish uchun ushbu mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan innavatsion va interfaol metodlardan foydalanish, ularni ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova X., Abjalova M., Elov B. Omonim so‘zlarni farqlash usullari. // O‘zbek Milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari//. - 42-45bb
2. Hamroyev M., Muhamedova D va boshqalar. Ona tili. – Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2007. – 276b
3. Muhiddinova X., Xudayberganova D. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 208b
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
5. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent. 2009. – 112b